
Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashining navbatdagi sessiyasi bo'lib o'tdi

Bugun tuman hokimligida Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashining oltinchi chaqiriq o'ttiz sakkizinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. O'tkazilgan sessiya ishida tuman Kengashi deputatlari, tuman sektor rahbarlari, tuman hokimining o'rinbosarlari, kun tartibiga kiritilgan masalaga aloqador tashkilotlar rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi. Sessiyada 8 ta masala ko'rib chiqildi: 1- masala O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev raisligida joriy yilning 5 may kuni o'tkazilgan vidioselektor yigilishida bergan topshiriq ijrosi yuzasidan Rishton tuman tez tibbiy va shoshilinch yordam xizmati sohasida olib borilgan o'rganish natijasi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha Dasturni tasdiqlash to'g'risida tuman hokimi o'rinbosari Z. Umarov axboroti 2-masala - Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilarini 2022 yil aprel oyidagi faoliyati samaradorligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Rishton tuman Xalq qabulxonasi mudiri S.Dodoboevning axboroti 3-masala- Fuqarolik ishlari bo'yicha Rishton tumanlararo sudining 2022 yilning 3 oyi davomida tumanlararo sud tomonidan odil sudlovni amalga oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Fuqarolik ishlari bo'yicha Rishton tumanlararo sudining raisi Sh. Axunbaev axboroti 4-masala- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 27-sonli Farmoni to'g'risida tuman IIB boshlig'ini o'rinbosari X.Teshaboev axboroti 5-masala- Tuman hokimligi zaxira fondidagi bo'sh turgan va zaxirada bo'lgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarida fermer xo'jaligi tashkil yetish uchun ochiq yelectron tanlovga chiqarish bo'yicha tayyorlangan loyixalar to'g'risida Kadastr Palatasi Rishton tuman filiali rahbari B. Dadajonov axboroti 6-masala- Rishton tuman hududidagi shaharchalarni ma'muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash to'g'risida Kadastr Palatasi Rishton tuman filiali rahbari B. Dadajonov axboroti 7-masala- Kam ta'minlangan, ijtimoiy ahvoli og'ir bulgan fuqarolarni "Temir daftar" ro'yxatiga kiritish va muammolari hal bulgan fuqarolarni ro'yxatdan chiqarish hamda "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'larini tasarruf etish yuzasidan Rishton tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari Z. Mustafoulov axboroti 8-masala- 2022-yil 1-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida tuman moliya bo'limi mudiri I. Djo'raev axboroti Kun tartibidagi masalalar yuzasidan berilgan axborotlar bo'yicha tuman Kengashi deputatlari tomonidan berilgan savollarga tegishli mas'ullar tomonidan javob berildi. Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari tomonidan muhokama qilinib taklif va mulohazalar o'rta taqda tashlandi. Shundan so'ng, tegishli qarorlar qabul qilindi. Bildirilgan axborotlar deputatlar tomonidan ko'rib chiqilib tegishli qaror loyihalari tayyorlandi. Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashining navbatdagi 38-sessiyasi o'z ishini yakunladi.

2022-06-03 14:58:02